

Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar



«Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar»

kafedra mudiri t.f.d, professor

Bozorov Dilshod Rayimovich

Tel: +99871-237-79-57

E-mai: d.bazarov@tiame.uz

«Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedra 1934 yilda Gidromelioratsiya fakulteti tarkibida tashkil qilingan. Hozirgi kunda esa «Gidrotexnika qurilishi» fakulteti tarkibida o'z faolyatini yuritmoqda.

Kafedra tashkil qilingandan so'ng unga: 1934-1969 yillarda T.A.Kolpakova; 1969-1985 yillarda S.K.Pereverzev, 1986-1999 va 2005-2010 yillarda B.R.Uralov; 1999-2004 yillarda va 2010-2018 yillarda T.Sh.Majidov; 2018 yil apreldan dekabrgacha E.K.Kan boshqargan. 2018 yil dekabrda hozirgi vaqtgacha texnika fanlar doktori, professor, D.R.Bazarov boshqarib kelmoqda.

Nasos stansiyalari hamda kichik va o'rta gidroelektrostansiyalarni loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun malakali mutaxassislarni tayorlashda: professorlar — D.Y.Sokolov, V.I.Gromov, E.J.Maxmudov O.Y.Glovaskiy; dotsentlar — T.A.Kolpakova, S.K.Pereverzev, S.Saidxodjaev, V.A.Baranov, V.I.Stratonov, V.P.Sudakov, Y.G.Ivanenko, R.R.Abduraupov, T.Sh.Majidov, V.A.Zenkova, R.A.Usmanov, B.M.Obidov, N.R.Raxmatov, T.N.Tursunov, N.Ikromov; katta o'qituvchilar — A.M.Motorin, K.V.Stupakov, Y.A.Sosedko, N.I.Goroshkova, A.S.Badalov; assistentlar — A.A.Aun, A. Askarov, V.S.Voronov, laboratoriya mudirlari — V.F.Antoninov, I.A.Yashin o'z hisalarini qo'shgan.

Hozirda kafedrada: professorlar — D.R.Bazarov, R.R.Ergashev B.R.Uralov, N.I.Vatin; dotsentlar — E.K.Kan, F.Sh.Shaazizov, B.E.Norqulov, F.Q.Artikbekova; katta o'qituvchilar — A.I.Azimov, A.A.Shadmanov; assistentlar — G.S.Teplova, B.N.Shodiyev, O.F.Vohidov, J.I.Rashidov, N.Ismailov; L.A.Mahsudova; laboratoriya mudirlari — B.Jo'rayev faolyat olib bormoqda.

Kafedra olimlaridan T.A.Kolpakova, S.K.Pereverzev hamda V.P.Sudakov «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator», A.S.Saidxodjaev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan quruvchi» va D.R.Bazarov "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi a'lochisi", "Gidroenergetika iftixori" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Hozirgi kunda kafedradagi 16 nafar professor-o'qituvchilar, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 11 ta fandan va magistratura mutaxassisliklarida 10 ta fandan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib

bormoqda. Kafedra laboratoriyasiga 13 dona o'quv va 4 dona ilmiy-tekshirish qurilmalari, 3 dona mashinali sug'orish tizimi va nasos qurilmasining nusxasi, gidroelektrostansiyalar qismlari, noan'anaviy energiya manbalari (quyosh panellari, quyosh kollektori), nasos qurilmasini ishga tushurish uskunalari, turli gidroenergetik qurilmalar va gidromashinalarning model va stentlari qo'yilgan.

[Gidrotexnika qurilishi fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)